UO‘K 94:355.253.15(575.1+520)“1945/1950”

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA ANDIJONDAGI 26-HARBIY ASIRLAR JAMLOG‘IDA OZIQ-OVQAT TA’MINOTI

M.Q. Nazirxo‘jayev

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Andijondagi 26-harbiy asirlar jamlog‘iga joylashtirilgan yapon harbiy asirlarining oziq-ovqat bilan ta’minlanishi o‘rganilgan. Harbiy asirlarning kunlik tartibi, ovqatlarning turlari, miqdori, asirlarning yordamchi xo‘jaliklarda dehqonchilik va chorvachilik ishlariga jalb etilishi masalalari arxiv manbalari, adabiyotlar, dala tadqiqotlarida to‘plangan ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *jamloq, Ichki ishlar Xalq komissarligi, Kvantun armiyasi, yapon harbiy asirlari, arxiv manbalari, dala tadqiqoti, oziq-ovqat ta’minoti, ovqat miqdori, maxsus gospitallar, yordamchi xo‘jaliklar.*

В статье рассматривается продовольственное снабжение японских военнопленных, размещенных в 26-м лагере для военнопленных в Андижане в годы Второй мировой войны. Распорядок дня военнопленных, виды и количество пищи, вопросы вовлечения военнопленных в земледелие и животноводство в подсобных хозяйствах анализировались на основе сведений, собранных в архивных источниках, литературе, полевых исследованиях.

Ключевые слова: *лагерь, НКВД, Квантунская армия, японские военнопленные, архивные источники, полевые исследования, обеспечение продовольствием, норма питания, спецгоспитали, подсобное хозяйство*.

KIRISH

Bashariyat, davlatlar tarixidan ma’lumki, harbiy to‘qnashuvlar, qirg‘inbarotlar tamaddun rivojlanishini doimo ta’qib etib, ortidan ergashib kelgan. XX asrda eng ko‘p qurbonlar keltirgan 1939–1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixida achinarli iz qoldirgan. Mazkur urushda bir necha o‘nlab davlatlar o‘z manfaatlarini himoya qilgan holda qatnashib, juda katta talafotlar ko‘rishgan.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Ikkinchi jahon urushida 50 milliondan ziyod odam halok bo‘lgan [1. B. 51]. Ikkinchi jahon urushining yakuni arafasida esa bir necha yuz minglab yapon askar va zobitlari Sovet ittifoqi armiyasi bilan to‘qnashuvlarda asirlikka olingan. Shular qatorida O‘zbekiston SSR hududidagi jamloqlarga[1] 25 ming atrofida yapon harbiy asirlari joylashtirilgan. 1945-yilning kuziga kelib, Sovet Ittifoqi hududida bir necha millionlab asirlar to‘plangan bo‘lib, ularning oldida turgan eng katta qiyinchiliklardan biri ularni yashash joyi va oziq-ovqat bilan doimiy ravishda ta’minlash masalasi bo‘lgan. Andijon viloyatida tashkil etilgan 26-harbiy asirlar jamlog‘iga 3000 atrofida yapon harbiy asiri joylashtirilgan. Mazkur jamloqning boshqarmasi Andijon viloyati Izboskan tumani Chuvama qishlog‘ida joylashgan. Jamloq boshqaruvida bitta bo‘lim mavjud bo‘lib, u Andijon viloyati Jalolquduq tumanida tashkil etilgan. Mazkur maqolani yozishda Rossiya davlatining bir qator arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar, Andijon viloyati davlat arxivi hujjatlari, shuningdek, dala tadqiqotlari materiallari tayanch manba bo‘lib xizmat qildi

Masalani tadqiq etishda muammoviy-davriy yondashuv, og‘zaki tarix (so‘rovnoma, kuzatuv va suhbat) usullaridan foydalanildi.

Yapon harbiy asirlarini joylarda oziq-ovqat bilan ta’minlash SSSR Mudofaa vazirligining 1945-yil 23-avgustdagi qaroriga [2] asoslangan holda 1945-yil 28-sentyabrda SSSR Ichki ishlar Xalq Komissarligi va Qizil armiya front orti qismi boshliqlarining “Yapon armiyasining harbiy asirlarini oziq-ovqat bilan ta’minlash” haqidagi buyrug‘i [3] e’lon qilingan. Mazkur farmonni ish-

[1] Tadqiqotimizda lager so‘ziga muqobil so‘z sifatida “jamloq” so‘zini qo‘lladik. “Jamloq” so‘zi turkiylashgan arabcha “jamaa” so‘zidan kelib chiqqan. Bu so‘z narsalar yoki insonlarni bir yerga jamlash, jamlamoq ma’nosini bildiradi. Shunga ko‘ra, “jamloq” so‘zidan tadqiqotimizda “harbiy asirlarning bir yerga jamlangan joyi” ma’nosidagi atama sifatida foydalanildi.

lab chiqishda yapon milliy oshxonasining xususiyatlari e’tiborga olingan.

Mazkur farmondan kelib chiqqan holda har bir harbiy asirga kunlik oziq-ovqat miqdori belgilangan. Shuningdek, jamloqlar va ularning bo‘linmalaridagi asirlarning sonidan kelib chiqib, harbiy ta’minot bo‘linmalari jamloq hamda uning bo‘linmalariga yetkazib berilishi zarur bo‘lgan bir oylik mahsulotni hisoblab chiqib turishgan. Harbiy asirlar uchun mo‘ljallangan mahsulotlarning kunlik miqdori Harbiy asirlar bosh boshqarmasi va Harbiy ta’minot bosh boshqarmasi tomonidan belgilab berilgan. Kunlik oziq-ovqat miqdori Ichki ishlar xalq komissari boshlig‘i (keyinroq Ichki ishlar vaziri) buyrug‘iga ko‘ra belgilanib, ilovalari bilan birgalikda e’lon qilingan. Asirlarning mavqei (unvoni)ga qarab, oddiy askar, kichik ofitser, ofitser, generallarning kunlik normalari bir-biridan farq qilgan. Maxsus gospitallar va lazaretlarda davolanayotgan harbiy asirlarga ularning sog‘liqlaridan kelib chiqqan holda kunlik ovqat miqdori tayinlangan. Sovet hukumati hududidagi jamloqlarda asirlikda saqlanayotgan nemis, italyan va boshqa millat asirlaridan farqlagan holda, yapon asirlarining milliy o‘ziga xosligi hisobga olinib, maxsus ovqatlanish miqdori ishlab chiqilgan.

Harbiy asirlar orasida belgilangan me’yordan tashqari og‘ir jismoniy mehnat bilan mashg‘ul bo‘lgan, jamloqning xo‘jalik ishlarida jalb qilingan harbiy asirlarga shakar va sabzavotlar me’yoriga qo‘shimcha 25 foiz ko‘paytirib berilgan. Non va guruch me’yorlarining qo‘shimchasi ham harbiy asirlarning rejadagi ishni qay darajada bajarishiga qarab qo‘shilgan. Non va guruchning me’yori teng miqdorda oshirib borilgan. Belgilangan rejadagi ishning 50 foizi bajarilganda 25 gramm, reja 50–80 foizgacha bajarilsa 50 gramm, 80–100 foizgacha – 75 gramm, ish rejaga nisbatan 101 foizga bajarilganda esa 100 gramm miqdorda qo‘shimcha oziq-ovqat qo‘shib berilgan [3. B. 389]. Bu kabi ishlar bilan sovet hukumati asirlarni rag‘batlantirishga va buning natijasida ish unumini oshirishga uringan.

Jamloqda xo‘jalik va boshqa ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan harbiy asirlar uchun 300 gramm non va shuncha miqdorda guruch (yarim tozalangan holda) belgilangan. Ishlayotgan harbiy asirlarning har biriga kuniga 5 gramm miqdorda sifati past bo‘lgan tamaki berib borilgan. Vitaminlar esa shifokorlar tavsiyasiga ko‘ra berilgan.

Yapon harbiy asirlarining SSSRga olib kirilib, jamloqlarga joylashtirilgungacha bo‘lgan vaqt oralig‘idagi oziq-ovqati Manjuriya yerlarida o‘lja sifatida qo‘lga kiritilgan, Kvantun armiyasining omborlarida saqlanayotgan armiya iste’moli uchun olib qo‘yilgan mahsulotlardan iborat bo‘lgan. Lekin yapon harbiy asirlarini mamlakatning bir qator hududlariga jo‘natish vaqtida, ya’ni 1945-yil sentyabr oyining oxirigacha oziq-ovqatlarning berilishi bir xil tartibda bo‘lmagan. Shunday bo‘lsa-da, rasmiy ravishda yapon asirlari to‘plangan front orti punktlarida oziq-ovqat normalari mavjud bo‘lgan. Ovqat mahsulotlarining asirlarga vaqtida berilishini nazorat qilish qo‘mondonlik xodimlariga topshirilgan. Asirlarning xotiralarida qayd etilishicha, “Biz Xouten, Choushyun va Xarbin[1]dan o‘tganimizda havo sovuq edi. Ovqatimiz qora non va bo‘tqasifat aralashmadan iborat edi. Non shunchalik qotib qolgan ediki, uni umuman kesib bo‘lmasdi” [4. B. 21–22]. Nafaqat asirlarda, balki mahalliy aholida ham oziq-ovqat masalasi og‘ir ahvolda bo‘lgan, chunki urush tugaguncha barcha aholi iste’mol mahsulotlari frontga safarbar qilingan bo‘lib, o‘zbek xalqining o‘zi ham bu kabi mahsulotlarga muhtoj edi.

Bir tarafdan sovuq iqlim, bir tarafdan og‘ir sharoit natijasida ko‘plab asirlar turli kasalliklarga chalingan. Yapon asirlari manzillariga yetib kelganlarida ko‘plari holdan toygan holatda bo‘lgan. Sovet hokimiyati tomonidan hosilni yig‘ish bo‘yicha buyruq bo‘lmaganligi sababli dalalardagi kuzgi hosil yig‘ib olinmaganligi asirlar ta’minotiga ham ta’sir qilgan. Temir yo‘l bekatidan va rayon markazlaridan uzoqda joylashtirilgan asirlarga oziq-ovqat mahsulotlari to‘laligicha yetib bormagan, natijada asirlar orasida kasallar va o‘lim holatlari ko‘payib ketgan.

Harbiy asirlar jamloqlarini oziq-ovqat bilan ta’minlash Mudofaa vazirligining “Jamloqlarni oziq-ovqat bilan ta’minlash” maxsus bo‘limi vakolatiga kirgan. Mazkur bo‘lim dastlab NKVDga, keyinchalik IIV[2]ga bo‘ysungan holda faoliyat olib borgan. Jamloqlardagi asirlarga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish va uzluksiz ta’minlash respublika va viloyatlardagi jamloqlarga biriktirilgan harbiy asirlar jamloqlari om-

[1] Xitoyning shimoli-sharqida joylashgan shaharlar. 1945-yilgacha bu shaharlar Manchjou-Go davlati tarkibiga kirgan

[2] NKVD – Narodniy komissariat vnutrennix del (Ichki ishlar xalq komissariati). IIV – Ichki ishlar vazirligi.

borlaridagi zaxiralar hisobidan amalga oshirilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari dastlab jamloqlardagi omborlarga kelib tushgan va u yerdan turli iste'mol hamda talabga ko'ra jamloqlardagi ovqat tayyorlash punktlariga taqsimlangan. Oziq-ovqat ta'minotini yetkazib berish tashkiloti SSSR hududidagi harbiy asirlarni iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlovchi yagona va yirik tashkilot hisoblangan [5. B. 62–63]

Harbiy asirlar jamloqlariga yaqin joydagi kolxozlar va boshqa tashkilotlar ham asirlarni ishlatish jarayonida ular bilan tuzilgan shartnomaga asosan asirlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashning bir qismini o'z zimmalariga olgan. Odatda sabzavot va mevali ekin mahsulotlarini yetkazib berish jamloqlarga yaqin joylarda joylashgan sovxoz va kolxozlar tomonidan amalga oshirilgan. Buning evaziga ular harbiy asirlarning mehnatidan foydalanib turishgan.

Yapon harbiy asirlarining kunlik ovqat me'yori g'arbiy davlatlardan asirlikka tushganlarnikidan farq qilgan. Agar g'arb davlatlaridan asirga tushganlarning kunlik ovqat me'yorida 600 gramm non bo'lsa, yapon asirlarida shu me'yor ikkiga taqsimlangan, shunda 300 gramm non, 300 gramm guruch har bir yapon asirining kunlik me'yoriga to'g'ri kelgan. Garchi urushdan keyingi dastlabki yillarda guruch qimmat mahsulotlardan bo'lsa-da, bu harakat bilan sovetlar go'yo yaponlarga g'amxo'rlik qilishgan, biroq, e'tibor berilsa, guruch nonni kamaytirish hisobiga oziq-ovqat me'yoriga kiritilgan.

Asirlarga beriladigan kunlik miqdor, asirning unvonidan tashqari, u ishlaydigan sohaga ham bog'liq bo'lgan. Agar asir kasal bo'lsa, unga odatdagidan kamroq miqdorda oziq-ovqat berilgan, lekin iloji boricha ratsionga vitaminli mahsulotlar qo'shishga harakat qilingan.

Yapon harbiy asirlari orasida turli xil kasalliklar kelib chiqmasligi uchun oziq-ovqatlarni vitaminga boy qilib tayyorlash maqsadida 1945-yil 21-iyundagi SSSR Ichki ishlar xalq komissari muovini tomonidan "Foydali yovvoyi o't-o'lanlar va tomirlarni yig'ish va bir joyga to'plash" [6. B. 163–165] to'g'risidagi farmoyishi asosida asirlar orasida yordamchi brigadalar tashkil etilib, haftaning ma'lum vaqtlarida, yuqoridagi ishlarni bajarish uchun konvoy bilan tog'u-dalalarga chiqib kech qaytishgan. Terib kelingan qo'ziqorin, dastorbosh (pijma), yantoq, qichitqi o't (krapiva), do'lana, na'matak, brusnika, xo'jag'at (malina) va boshqa shunga o'xshash inson salomatligi uchun foydali bo'lgan dorivor giyohlar, yovvoyi o't-o'lanlar hamda mevalardan zarur miqdorda ovqatga qo'shilib, zaxira sifatida qishga ham olib qo'yilgan.

Sovet ittifoqining turli respublikalarida ko'plab asirlarni qabul qilish va joylashtirish deyarli bir xil bo'lgan. Shular qatori O'zbekiston SSRda ham yapon harbiy asirlari kelgunicha bu yerda saqlanayotgan nemis harbiy asirlari bilan bir qatorda ularni ham yotoq, kiyim-bosh, oziq-ovqat va turli xil sharoitlar bilan ta'minlash bir qator noqulayliklar keltirib chiqargan. 26-sonli harbiy asirlar jamlog'idagi yapon harbiy asirlarining oziq-ovqat bilan bog'liq ishlarini tashkillashtirish va boshqa ma'lumotlarni aniqlashda 1947-yilda O'zbekiston SSR Harbiy asirlar bilan ishlash boshqarmasining birinchi bo'lim boshlig'i mayor Smirnov [7. B. 3] tomonidan tuzilgan hisobot e'tiborga loyiqdir. Andijon viloyati Izboskan tumani Chuvama qishlog'ida joylashgan 26-sonli harbiy asirlar jamlog'i oziq-ovqat bilan markazdan turib ta'minlanishi bilan birga quyidagicha amalga oshirilgan.

1. Qirg'iziston Respublikasi O'sh shahrida joylashgan harbiy ta'minotning hududiy bo'linmasiga qarashli 35-omborxona Izboskan tumani Chuvama qishlog'idagi 26-sonli jamloq boshqarmasidan 90 km uzoqlikda va ushbu jamloqning Jalolquduq tumani Janubiy Olamushuk shaharchasidagi ikkinchi bo'limidan 30 km uzoqlikdagi masofada joylashgan. Ba'zan transportning yetishmovchiligi yoki nosozligi tufayli oziq-ovqat kechiktirib kelish holatlari ham kuzatilgan.

2. Jamloq (lager)ga biriktirilgan yordamchi xo'jalikda mavjud bo'lgan 300 gektar yerdan yetishtiriladigan poliz ekinlari va boshqa mahsulotlardan asirlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashda foydalanilgan [8. B. 2–4]. Vodiy hududi kichkina va shaharlarning bir-biriga yaqin joylashganligi, shu bilan bir qatorda, yordamchi xo'jalikga foydalanish uchun berilgan 300 gektar yer mavjudligi uchun ham jamloqga yetkaziladigan oziq-ovqat, iste'mol mahsulotlarida uzilish holatlari kam kuzatilgan.

Andijon viloyatidagi 26-jamloq tasarrufidagi mazkur 300 gektar yerdan 188 gektari haydab ekishga mo'ljallangan. Jamloq qarmog'idagi yerdan jamloq uchun poliz ekinlari hamda turli xil uy hayvonlarini parvarishlash natijasida go'sht va sut mahsulotlari yapon harbiy asirlari iste'moli uchun yetkazib berilgan [9. B. 433].

1944–1946-yillarda 26-sonli harbiy asirlar jamlog'idagi asirlar kuchi bilan yordamchi

xo‘jaliklarda ekin yerlarini kengaytirish va chorva mollarini ko‘paytirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilgan. Jamloq yordamchi xo‘jaligi uchun ajratilgan yer maydoni paxta maydonlarining oxirida joylashgani va yerlarni sug‘orish uchun zarur ariq suvlarining yaxshi yetib bormasligi hamda ekin ekishga noqulay bo‘lishiga qaramay, asirlarning qattiq mehnatlari samarasi o‘laroq yaxshi hosil olingan.

1946–1947-yillarda Andijon viloyati Izboskan tumani Chuvama qishlog‘i va Jalolquduq tumani Janubiy Olamushuk shaharchasidagi 26-harbiy asirlar jamlog‘i uchun yordamchi xo‘jalik yerlari ekinlar uchun quyidagicha taqsimlangan: donli va dukkakli ekinlar uchun 168 gektar, kartoshka uchun 6–10 gektar atrofida, beda – 30 gektar, poliz ekinlari uchun 46 gektar, jami 260 gektar. Bulardan tashqari, mazkur 26-jamloq qaramog‘iga 62 gektardan iborat uzumzor va mevali daraxtlardan iborat bog‘ berilgan. Jamloqdagi asirlarni sabzavot bilan to‘liq ta’minlash uchun jamloqga yana 120 gektar yer yetishmagan, bunga asosiy sabablardan biri jamloq joylashgan hududda bo‘sh yerlarning yo‘qligi edi. Shu kabi holatlar tufayli ham yordamchi xo‘jalik yerlarida yetishtirilgan sabzavotlar va dukkakli ekinlar jamloqning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondira olmagan [9. B. 434].

Mazkur jamloqga ekish va poliz mahsulotlari yetishtirish uchun berilgan yerlar yana uchdan bir nisbatda yetishmagan, jamloqqa biriktirilgan yordamchi xo‘jalikda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi iste’mol mahsulotlari asirlarda bu mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojni 30% – 40% gacha qondira olgan.

Oziq-ovqat yetkazilishidagi uzilishlarni markaziy omborlardan olingan buyurtmalar asosida olib kelingan oziq-ovqat hisobiga qoplangan. Yordamchi xo‘jalik tomonidan jamloqga sabzavotlarni yetishtirib berishda uzilishlar bo‘lmagan, faqat O‘zbekiston SSRda hosili kam bo‘lgan kartoshka bundan mustasno edi.

Jamloq iste’mol uchun rejalashtirilgan ko‘p miqdordagi sut va go‘sht mahsulotlarini o‘ziga biriktirilgan yordamchi xo‘jalikda boqiladigan chorva mollaridan olgan. Asirlar tomonidan hayvonlarni parvarish qilish uyushgan holda amalga oshirilganligi uchun bu borada yordamchi xo‘jalikda yaxshi natija olingan. Iste’mol uchun olib kelingan oziq-ovqatni tayyorlash va asirlarga taqsimlash uchun jamloqda 2500 kishiga mo‘ljallangan 700 o‘rindiqdan iborat oshxona, 50 tonnagacha sabzavot va 200 tonnagacha oziq-ovqat saqlashga mo‘ljallangan omborxona mavjud bo‘lgan [10. B. 4].

Jamloq tarqatib yuborilishi arafasida unga biriktirilgan yordamchi xo‘jalikda 41 ta ot, 87 ta qoramol, 193 ta cho‘chqa, 211 ta qo‘y va echki, 31 ta parranda bo‘lgan. 1947-yilning may oyida jamloq tarqatilib yuborilgandan so‘ng unga qarashli yordamchi xo‘jalikdagi binolar, qoramollar, ekin yerlari uning o‘rnida tashkil etilgan Andijon bolalar koloniyasiga o‘tkazilgan [11. B. 2–54].

Jamloqlardagi harbiy asirlarni kiyim-kechak bilan ta’minlash urush vaqtida o‘lja sifatida qo‘lga kiritilgan kiyimlar hisobidan amalga oshirilgan. Asirlarni kiyim-kechak bilan ta’minlashda kamchiliklar kuzatilmagan. Asirlar ustki va ichki kiyim, poyabzal bilan ta’minlangan bo‘lib, jamloq omborxonasida zaxirada ortiqcha kiyim-kechak ham saqlangan. Jamloqdagi asirlarning yaroqsiz holga kelgan kiyim-kechaklarini ta’mirlash uchun tikuvchilik va poyabzal ustaxonalari mavjud bo‘lgan. Jamloqdagi barcha asirlar yotoq uchun choyshab va to‘shak bilan to‘liq ta’minlangan. Bu kabi ishlar 1946-yilning bahoridan boshlab amalga oshirilgan.

Oshxonadagi oziq-ovqat mahsulotlari to‘g‘risida sobiq asirlar shunday xotirlagan: “Ertalab ishga chiqishdan oldin yemakxona ishlamasdi. Shu sababli biz o‘z tashabbusimiz bilan nonushta uyushtirib, hammaga qora non ulashardik. Yegulikni bizga ikki marta berishardi va u quyidagicha taqsimlanardi: ertalab 200 gr qora non (obyektga chiqib ishlay boshlaganimizdan so‘ng 350 gr.gacha ko‘tarishdi), bundan tashqari shakar, mayda to‘g‘ralgan rediskali sho‘rva berishardi. Kechki ovqatimiz ko‘pincha quyidagicha belgilanar edi: asosan donlilar (xom tariq va tovuqlar tarig‘i). Bularning hammasini suvda qaynatib, pishirib berishardi va, tabiiyki, och qornimizga bu urvoq ham bo‘lmasdi. Sovuq mavsumda bunday yegulikdan keyin, biz dildirab uxlay olmasdik. Boshqa ilojimiz bo‘lmaganligidan keyin oqshomlari atrofdagi turli o‘tlarni terib, ularni qaynatib ichardik. Qahraton va ochlik bizni qiynaydigan asosiy muammolar edi. Jamloq otxonasida ot boqilardi. Otxona bo‘yicha navbatchi har oqshom ertasi saharga otlar uchun yegulik tayyorlagan. Saharda esa bu yegulikdan juda kam qolganligi aniqlanardi. Bundan shu narsa ma’lum bo‘lardiki, kechasi bilan madori qurigan nemis va yapon asirlari ochlikdan bu sulini yeyishgan. Otlarga ovqat

tayyorlaydigan navbatchining o‘zi ham asirlardan bo‘lganligi uchun bu holatga ko‘z yumishiga to‘g‘ri kelardi” [4. B. 109–110].

Yuqoridagi xotiralarni shunday izohlash mumkinki, bu kabi holatlar asosan asirlar jamloqqa kelgan dastlabki olti oyda – 1945-yilning kuzidan 1946-yilning bahor oylarigacha bo‘lgan, chunki o‘sha vaqtlarda mamlakat bo‘ylab, jumladan, jamloqlarda ham oziq-ovqat tanqisligi kuzatilar edi.

Harbiy asirlarni, jumladan, yaponlarni ham bir kunda uch mahal ovqatlantirilgan, kunlik tartib quyidagicha bo‘lgan:

7.00–8.00 – nonushta, stolni yig‘ishtirish;

12.00–13.00 – peshingacha bo‘lgan ishning yakunlanishi, jamloqqa qaytish va tushlik ovqat;

18.00–19.00 – kechki ovqat, undan keyingi bo‘sh vaqt.

21.00–06.00 – chiroqning o‘chirilishi va uyquga yotish bo‘lgan.

Asirlarning xotira, kundaliklarida keltirilishicha, “Kim nima desa desin-u, ammo ovqatlanish eng muhim va qiziqarli soha edi. Dastlabki kunlari oziq-ovqatlarning turlari u qadar ko‘p emasdi. Ovqatning miqdori ham sho‘ro tomonidan belgilanar edi. Yemagimiz turli donli mahsulotlardan qilingan bo‘tqa bo‘lardi. Bu atala chala pishganidan doim ichimiz qotardi. Sovuq ovqatga sho‘r baliq solishardi. Tuz ko‘p solinganidan, chanqab og‘zimiz qurir va kechki mahal turib suv ichishga majbur bo‘lar edik. Keyinroq bu sohada ham aqlliroq bo‘lib qoldik. Bir kunda bitta kishiga quyidagi miqdorda yegulik (gramm hisobida) belgilangan edi:

1. Donli mahsulotlar: 350 gr – guruch, tariq, arpa, mosh.

2. Qora non: 350 gr – 96% lik, 100 gr donli mahsulotdan 96 gr qora un chiqardi.

3. Sabzavot, ko‘kat: 800 gr – bosh karam, kartoshka va qizil lavlagi.

4. Baliq – 100 gr, dengizga yaqin joydagi jamloqlarda 150 gr.

5. Go‘sht – 50 gr suyakli qo‘y go‘shti, ba’zida toshbaqa go‘shti.

6. Tuz – 10 gr oqartirilmagan osh tuzi.

7. Yog‘ – 10 gr o‘simlik yog‘i.

8. Choy – 1 gr.

9. Shakar – 15 gr, ba’zida oq qand.

10. Tamaki – 10 gr, xom ashyo maxorka sifatida. Maxorkani qog‘ozga o‘rab chekardik” [4. B. 29-32].

Mazkur ro‘yxatdan yegulikning ozuqa darajasini hisoblab chiqarish mumkin. 100 lik hisobidan kelib chiqilsa, sabzavot, ko‘kat va kartoshka bilan birga 3400 kilokaloriya, shakar esa 2800 kkal. atrofida bo‘lgan. Aslida, mahsulotlar tarkibi sifatsiz ekanligini ham aytib o‘tganlar. Jumladan, tozalanmagan guruch, go‘shtdan ko‘ra suyakning ko‘proqligi, tuya go‘shti, asosan, chirigan kartoshka berilganligi, baliq esa o‘ta qiltanoqli bo‘lib, yegulik qismi deyarli bo‘lmagan. Aslida, hisob bo‘yicha jami 1800, ko‘pi bilan 2000 kilokaloriya bo‘lgan. Yegulikning kamligi, tabiiyki, ish davomida jismoniy va ruhiy zo‘riqishni keltirib chiqargan. Hammadan ham, ochlikdan aziyat chekilgan. Ba’zida asirlarni kimningdir dala hovlisiga ishlash uchun olib chiqishgan [4. B. 31].

SSSR IIVning 450-sonli farmoniga binoan asirlarga oziq-ovqat tabaqalashtirib berilishi harbiy asirlar ichida ularga yuklatilgan ish rejasini bajarmayotganlarning yarmidan ko‘pida ovqat me’yori kamayishiga olib kelgan. 1947-yilning 17-martidan boshlab asirlarda ovqatga bo‘lgan ehtiyoj yuqoriligi sababli yemakka ko‘proq ega bo‘lish uchun ular orasida talabdagi ishni 80 foiz bajarayotganlar kamayib borgan, endi asirlar ishni 100 foiz va undan oshirib bajarishga harakat qilayotgani kuzatilgan. Shunday bo‘lsada, 1947-yilning yanvar oyidan aprel oyigacha asirlarga markaziy omborlardan oziq-ovqat keltirish kamaygan, ba’zida uzilishlar bo‘lib turgan [5. B. 67–68].

Jamloqlardagi omborxonalarda saqlanayotgan zaxiradagi mahsulotlar yetmay qolish holatlari ham kuzatilgan. Jamloqlar qaromog‘idagi yordamchi xo‘jaliklarda yetishtirilgan poliz mahsulotlarining hammasi asirlarga ovqat uchun ishlatilmagan, bu mahsulotning bir qismi davlat omborlariga topshirilgan. Bu vaziyatdan chiqish maqsadida barcha jamloqlarga asirlarni ishdan bo‘sh vaqtlarida, iste’molga yaroqli yovvoyi o‘simliklarni terib jamloqlarga olib kelib, ovqatga qo‘shimcha sifatida ishlatish haqida 1947-yil 6-mart kuni 43-yo‘riqnoma kelib tushgan [12. B. 83–85].

Xuddi shunday holat Andijon viloyati Jalolquduq tumanida joylashgan 26-sonli harbiy asirlar jamlog‘ida ham kuzatilgan. 1966-yilda Jalolquduq tumani Janubiy Olamushuk shaharchasi “Birlashgan” mahallasida tug‘ilgan Sirojiddinov Hakimjonhojining xotirlashicha, uning dadasi Maxsumhoji ota yapon harbiy asirlariga brigadir bo‘lib ishlagan. “Yaponlar ishdan bo‘sh vaqtlarida Qoradaryo va Andijonsoyga tushib yovvoyi hayvonlar (ilon, qurbaqa,

shilliqurt, chigirtka)ni tutishar, adirlarga chiqib yovvoyi o‘simliklarni terib kelishar edi. Mahalliy aholi bularning ishlariga ajablanib qarardi. Bizlar ularga uylarimizdan non, sut, qatiq olib kelib berar edik. Mamlakatda vaziyat shundoq ham og‘ir edi” [13].

Ba’zida yovvoyi o‘simliklarni yoki qo‘ziqorinlarni yeb zaharlanish holatlari ham bo‘lib turgan. Zaharlangan yapon asirlarining yarmi vafot etgan. Zaharlangan yaponlardan sababini so‘rashganda, ba’zi yovvoyi o‘simliklar va qo‘ziqorinlarni o‘z yurtidagi qo‘ziqorin va o‘simliklarga o‘xshashligi uchun iste’mol qilishganini aytishgan [14. B. 105].

Harbiy asirlar jamlog‘ida asirlarning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji qondirilmay, sog‘lig‘i achinarli holga kelib qolganligi va o‘lim holatlari ko‘payib borayotganligi haqida ko‘plab murojaatlardan so‘ng SSSR Ichki ishlar vaziri S.N.Kruglov tomonidan 1947-yil 25-yanvarda barcha harbiy asirlar jamloqlari boshliqlariga 21-raqamli maxfiy yo‘riqnoma jo‘natilgan. Unga ko‘ra, barcha jamloqlarda oziq-ovqatni vaqtida yetkazish va asirlarga to‘g‘ri taqsimlash, shu bilan bir qatorda jamloqlarda taftish o‘tkazish buyurilgan. Tekshirishlar natijasida ko‘plab harbiy jamloqlarning ma’muriyati va xodimlari tomonidan oziq-ovqatning ma’lum miqdori asirlarga berilmaganligi, hujjatlarni soxtalashtirib, ko‘chirish holatlari aniqlangan [15. B. 7, 29, 45–46].

Bu kabi holatlarda aybdorligi aniqlangan xodimlarning aksariyati partiya safidan o‘chirilib, jinoiy javobgarlikka tortilgan, ayrim xodimlar boshqa jamloqlarga ishga o‘tkazilgan yoki ishdan haydalgan, nafaqa yoshiga yetib qolganlari nafaqaga chiqarib yuborilgan. Jami 250 xodim javobgarlikka tortilgan [16. B. 23–24, 29]. Jamloqlarga yangi boshliqlar tayinlangan, ko‘plab xodimlar almashtirilgan, ogohlantirishlar berilgan. Shunday tadbirlardan keyin jamloqlardagi oziq-ovqat muammosi bartaraf etila boshlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda saqlanayotgan yapon harbiy asirlarining oziq-ovqat ta’minoti SSSR Ichki ishlar xalq komissariati buyruqlari asosida amalga oshirilgan. 1945-yilning oxirlarida Sovet Ittifoqida saqlanayotgan millionlab turli millat vakillaridan iborat asirlarni oziq-ovqat bilan ta’minlash katta mashaqqat talab etgan. Ularning mehnatidan mamlakat qishloq xo‘jaligi, sanoati va iqtisodini ko‘tarishda foydalanilgan. Asirlarga tabaqalashtirilgan tarzda va mehnat unumdorligini hisobga olgan holda oziq-ovqat me’yorlari tayinlangan, mamlakatda oziq-ovqat zaxirasining yetishmasligi asirlarning oziq-ovqat ta’minotiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Asirlarga beriladigan oziq-ovqat ro‘yxatidagi mahsulotlar ko‘p hollarda boshqa mahsulotlar bilan almashtirib turilgan. Yapon harbiy asirlari oziq-ovqatlarining sifati 1947-yilga kelib 1945-yildagiga nisbatan yaxshi tarafga o‘zgargan.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон тарихи 2-жилд / Тузувчилар. Р.Абдуллаев, М.Раҳимов. Қ.Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 576 б.

2. СССР Мудофаа вазирлигининг 1945 йил 23 августдаги “Япон ҳарбий асирларини қабул қилиб олиш, ҳудудларга тақсимлаш ва уларнинг меҳнатидан фойдаланиш” ҳақидаги 9898-сонли қарори // Военнопленные в СССР. 1939–1956. Документы и материалы. [Интернет манба]. URL: https://dl.booksee.org/genesis_as/ (Мурожаат этилган сана: 27.01.2023).

3. 1945 йил 28 сентябрда СССР Ички ишлар Халқ Комиссарлиги ва Қизил армия фронт орти қисми бошлиқларининг “Япон армиясининг ҳарбий асирларини озиқ-овқат билан таъминлаш” ҳақидаги 001117/0013-сон буйруғи // Военнопленные в СССР. 1939–1956. Документы и материалы. [Интернет манба]. URL: https://dl.booksee.org/genesis_as/ (Мурожаат этилган сана: 28.01.2023)

4. Худойқулов Ш. Японларга паноҳ бўлган юрт. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2012. – 160 б.

5. Ким С.П. Продовольственное обеспечение японских военнопленных в 1945–1950 гг // Военно-исторический журнал, 2015. – №2. – С.62–63.

6. Россия Федерациясининг давлат архиви (РФДА), 9401-жамғарма, 1-рўйхат, 745-йиғма жилд, 163-165-варақлар.

7. Россия давлат ҳарбий архиви (РДҲА), 1а-жамғарма, 15-рўйхат, 67-йиғма жилд, 3-3-варақнинг орқа томони.

8. РДҲА, 1а-жамғарма, 15-рўйхат, 66-йиғма жилд, 2-4-варақлар
9. Региональные структуры ГУПВИ НКВД-МВД СССР. 1941–1951: Отчётно-информационные документы // Гл. ред. М.М.Загорулько. –Волгоград: Издатель, 2006. –Т. 5. Кн. 2. – 1088 с.
10. РДҲА, 1а-жамғарма, 15-рўйхат, 66-йиғма жилд, 4-варақ.
11. РДҲА, 1а-жамғарма, 15-рўйхат, 66-йиғма жилд, 2-54-варақлар.
12. Японские военнопленные в СССР: 1945–1956. Сборник документов. / Под ред. Гаврилов В.А., Катасонова Е.Л. – Москва: МДФ, 2013. – 784 с.
13. Дала тадқиқотлари. Андижон вилояти. Суҳбат 2013 йил 27 март куни бўлиб ўтган.
14. РФДА, 9401-жамғарма, 1-рўйхат, 2434-йиғма жилд, 105-варақ.
15. РФДА, 9401-жамғарма, 1а-рўйхат, 257-йиғма жилд, 7, 29, 45-46-варақлар.
16. РДҲА, 1-жамғарма, 17а-рўйхат, 18-йиғмажилд, 23-24, 29-варақлар.

FOODSTUFFS SUPPLY IN THE 26TH CAMP FOR PRISONERS OF WAR IN ANDIJAN IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR

Muhammadalihoja K.Nazirhojaev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 64-71.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: *camp, NKVD, Kwantung Army, Japanese prisoners of war, archival sources, field research, food supply, food standard, special hospitals, subsidiary farming.*

In the article, for the first time in Uzbek historiography, an attempt was made to illuminate, on the basis of comparison and analysis of the collected data from archival sources, literature, field research, such issues as the Japanese prisoners of war, established in Andijan, the 26th rehabilitation camp of the Uzbek SSR during the Second World War, the provision of food to Japanese prisoners of war, daily routine, variety of food, norm, involvement of prisoners of war in subsidiary farms in agriculture and animal husbandry in an attempt to satisfy the need for food among prisoners of war. Also, that the military camps established in the Uzbekistan SSR including in Andijan region, unlike others, were included in the category of places not only for forced labor, but also for rehabilitation, and the Japanese, German, Italian and Austrian prisoners of war who were infected with the infectious diseases such as tuberculosis and typhus before their arrival in Uzbekistan, were treated there. The Japanese prisoners of war defined that the main purpose of maintaining the health of the military prisoners of war, reducing their deaths and providing them with food in the camps was to use them as a labor force, because the Japanese prisoners of war had a men – tality close to the traditions of the local population compared to other prisoners and due to the absence of personal animosity towards the population, the local popula – tion and administration of the camps were in a relatively positive attitude towards them compared to other prisoners.

The 26th Special Recreation Camp is organized in Andijan region, which consists of two divisions, one in Chumash village of Izboskan district and the other in Jalolkuduk district. Main part Prisoners of war held in the 26th wellness camps in the first years worked to improve the internal conditions of the camp and work on camp sites. Beginning in 1946, prisoners of war began to work in various agricultural enterprises under the contract between the enterprise and the camp. In addition, Japanese prisoners of war were involved in the construction of many buildings and housing facilities. They did this under the convoy control. Japanese prisoners of war worked in less favorable weather conditions in Uzbekistan than in the cold climatic zones of the northern and eastern parts of the former Soviet Union.

In writing this article, the documents stored in a number of archives of the Russian state, the documents of the state archive of Andijan region, as well as field research materials served as basic sources.

The methods of objectivity, problem-periodical approach, oral history (survey, observation and interview) were widely used in the coverage of the article.

References:

1. Abdullaev, R. (et.al) (2019) *O‘zbekiston tarixi.* 2-jild. [History of Uzbekistan]. Vol. 2. Tashkent: O‘zbekiston.

2. SSSR Mudofa vazirligining 1945 jil 23 avgustdagi “Yapon harbij asirlarini qabul qilib olish, hududlarga taqsimlash va ularning mehnatidan fojdalanish” haqidagi 9898-sonli qarori. (Voennoplennye v SSSR. 1939–1956. Dokumenty i materialy). [Resolution No. 9898 of the Ministry of Defense of the USSR dated August 23, 1945 ‘Accepting Japanese prisoners of war, distributing them to regions and benefiting from their labor.’ (Prisoners of war in the USSR. 1939–1956 Documents and materials)]. [Online]. URL: https://dl.booksee.org/genesis_as/]. (Date of access: 27.01.2023).

3. 1945 jil 28 sentyabrda SSSR Ichki ishlar Xalq Komissarligi va Qizil armiya front orti qismining boshliqlarining “Yapon armiyasining harbiy asirlarini oziq-ovqat bilan ta’minlash” haqdagi 001117/0013-son bujrug‘i (Voennoplennye v SSSR. 1939–1956. Dokumenty i materialy). [On September 28, 1945, the decree No. 001117/0013 of the People’s Commissariat of the Internal Affairs of the USSR and the heads of the Red Army’s rear-front unit “Provision of food to prisoners of war of the Japanese army” (Voennoplennye v USSR. 1939–1956. Documents and materials). [Internet resource]. [Online]. URL: https://dl.booksee.org/genesis_as/. (Date of access: 28.01.2023)

4. Hudojkulov, Sh. (2012) *Yaponlarga panoh bo‘lgan yurt* [Land of refuge for the Japanese]. Tashkent: Tafakkur qanoti.

5. Kim, S.P. (2015) Prodovol’stvennoe obespechenie yaponskih voennoplennyh v 1945-1950 gg. [Prodovol’stvennoe obespechenie japonskih voennoplennyh v 1945-1950 gg.]. *Voenno-istoricheskij jurnal*. No 2. Pp. 62-63.

6. Rossiya Federaciyasining Davlat arhivi (RFDA) [State Archives of the Russian Federation]. Fund – 9401. List-1. Folding Volume-745, sheets 163-165.

7. Rossiya davlat harbiy arxivi [Russian State Military Archive (RDHA)]. Fund – 1a. List-15. Folding Volume-67, Back of sheet 3-3.

8. RDHA, Fund – 1a. List-15. Folding Volume-66, , sheets 2-4.

9. Zagorul’ko, M.M. (ed.) (2006) Regional’nye struktury GUPVI NKVD-MVD SSSR. 1941–1951. [Regional structure of GUPVI NKVD-MVD USSR. 1941–1951]. Otchyotno-informacionnye dokumenty [Disclosure and information documents]. Vol. 5.Book 2. Volgograd: Izdatel’.

10. RDHA, Fund – 1a. List-15. Folding Volume-66, sheet 4.

11. RDHA, Fund – 1a. List-15. Folding Volume-66, sheets 42-54.

12. Gavrilov, V.A. (et.al) (2013) Yaponskie voennoplennye v SSSR: 1945-1956. [Japanese war prisoners v SSSR: 1945-1956]. Collection of documents. Moscow: MDF.

13. (2013) Dala tadqiqotlari. Andijon viloyati. Suhbat 2013 jil 27 mart kuni bo‘lib o‘tdi. [Field research. Andijan region. The interview was held on March 27.

14. RFDA, Fund – 9401. List-1. Folding Volume-2434, sheet 105.

15. RFDA, Fund – 9401. List-1a. Folding Volume-257, sheets 7, 29, 45-46.

16. RDHA, Fund – 1. List-17a. Folding Volume-18, sheets 23-24, 29.

Muallif haqida ma’lumot:

NAZIRXO‘JAYEV Muhammadalixo‘ja Qosimxo‘jayevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi. E-mail: mangu-bek67@mail.ru